МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	



DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyeovich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinova	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIYQ-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	
MAMLUKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	



YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELİ	1644
Hamzayeva Difuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQUARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLUKAT BRENDA-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizozulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIVAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI	1724
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING MIQDOR VA SIFAT MEZONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	1727
Mirzayeva Intizor Ergashevna	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1733
Sobirov Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA DUCH KELADIGAN MUAMMOLAR TAHLILI.....	1738
G'afurov Zohidjon	



ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭФФЕКТА ГЛУШЕНИЯ СТЕКЛОМАЗАИЧНЫХ ПЛИТОК ИЗ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ	1741
Казаков Умрбек Аллаберганович	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	1745
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QASHQADARYO VILOYATI KICHIK SANOAT ZONALARINING INVESTITSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1749
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich	
«HUDUDGAZTA'MINOT» AJ KORXONALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI.....	1754
Xusanov Durbek Nishanovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1760
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	1766
To'rayev Jasurali To'rayevich	
KOOPERATSIYA MUNOSABATLARIGA KIRGAN VA KIRMAGAN FERMER XO'JALIKLARINING EMPIRIK DESKRIPTIV STATISTIKA TAHLILI.....	1772
Ismoilov Azamat	
DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.....	1777
Khalimov Shakhboz Khalimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH STRATEGIYALARI.....	1782
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
AQSH VA FRANSIYA MISOLIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK MEZONLARINING TAHLILI.....	1786
Aripov Oybek Abdullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKSTENSIV, INTENSIV VA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISHINING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1794
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МОДЕЛЕЙ УПРАВЛЕНИЯ КОНФЛИКТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	1804
Холикова Сабохат Абдукарим кизи	
IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	1809
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
“HUDUDGAZTA'MINOT” AKSIYADORLIK JAMIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	1812
Jalilov Sherzod Kaxramanovich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1818
Hamroeva Zuhra Amiral qizi	
ОСНОВНЫЕ ДРАЙВЕРЫ ИННОВАЦИОННОГО РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	1824
Самадкулов Мухаммаджон	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHILAR FAOLIYATIGA JORIY ETILISH YO'NALISHLARI.....	1828
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI: O'ZBEKISTON AGRAR SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI VA JAHON SAVDO TASHKILOTIGA INTEGRATSIYA MASALALARI.....	1833
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	



EKOMARKETING: BOZOR TALABINING YANGI YO'NALISHI VA BARQAROR TARAQQIYOT OMILI.....	1838
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	1844
Jabborov Bahridin Rashidovich	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	1849
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOIJ AHOLINI MODDIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1854
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
ВКЛАÐ ОБЪЕКТОВ НАСЛЕÐЯ В ТУРИСТИЧЕСКИЕ ПОТОКИ И ЭКОНОМИКУ ГОРОДОВ.....	1859
Азизова Назира Тохтаевна	
ОПТИМИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1863
Минутдинова Лилия Тагировна	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ И СПЕЦИФИКА БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЭКОНОМИКУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1868
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
ЕКОЛОГИК MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	1872
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	



EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

odilovhamidillo92@gmail.com,

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik monitoring tizimini joriy etishning mintaq iqtisodiy barqarorligiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekologik monitoring orqali atrof-muhit holatini muntazam kuzatish, ekologik xavflarni erta aniqlash hamda ushbu axborotlar asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini baholashdan iborat. Maqolada ekologik monitoring tizimining mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, uning institutsional mexanizmlar bilan o'zaro bog'liqligi va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir kanallari ochib beriladi. Shuningdek, ekologik monitoring natijalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishi ilmiy asoslanadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy rivojlanish siyosatini takomillashtirish, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekologik monitoring, mintaq iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik, hududiy boshqaruv, institutsional mexanizm, ekologik indikatorlar, resurslardan foydalanish samaradorligi, yashil iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the impact of the implementation of an environmental monitoring system on the economic stability of the region from a scientific, theoretical and practical perspective. The main goal of the study is to systematically monitor the state of the environment through environmental monitoring, early detection of environmental risks, and assess the effectiveness of making economic decisions based on this information. The article reveals the role of the environmental monitoring system in ensuring the stability of the regional economy, its relationship with institutional mechanisms, and channels of influence on economic efficiency. It is also scientifically substantiated that the use of environmental monitoring results serves to increase production efficiency, rational use of resources, and reduce environmental costs. The results of the study serve as a methodological basis for developing practical recommendations aimed at improving regional development policy, harmonizing environmental safety and economic stability.

Key words: environmental monitoring, regional economy, sustainable development, economic stability, environmental safety, territorial governance, institutional mechanism, environmental indicators, resource efficiency, green economy.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние внедрения системы экологического мониторинга на экономическую стабильность региона с научной, теоретической и практической точек зрения. Главная цель исследования – систематический мониторинг состояния окружающей среды посредством экологического мониторинга, раннее выявление экологических рисков и оценка эффективности принятия экономических решений на основе этой информации. В статье раскрывается роль системы экологического мониторинга в обеспечении стабильности региональной экономики, ее взаимосвязь с институциональными механизмами и каналами влияния на экономическую эффективность. Также научно обосновывается, что использование результатов экологического мониторинга способствует повышению эффективности производства, рациональному использованию ресурсов и снижению экологических издержек. Результаты исследования служат методологической основой для разработки практических рекомендаций, направленных на совершенствование политики регионального развития, гармонизацию экологической безопасности и экономической стабильности.

Ключевые слова: экологический мониторинг, региональная экономика, устойчивое развитие, экономическая стабильность, экологическая безопасность, территориальное управление, институциональный механизм, экологические показатели, ресурсоэффективность, зеленая экономика.



KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda iqlim o'zgarishi, ekologik degradatsiya va tabiiy resurslardan foydalanish bosimining ortishi mintqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalasini strategik darajaga olib chiqdi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, atrof-muhit holatining yomonlashuvi ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, sog'liqni saqlashga sarflanadigan mablag'larning ko'payishi hamda investitsion xavflarning kuchayishi orqali hududiy iqtisodiyot barqarorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Shu sharoitda ekologik monitoring tizimini joriy etish mintaqaviy rivojlanishni boshqarishda axborot-asosli qarorlar qabul qilishning muhim institutsional instrumenti sifatida maydonga chiqmoqda. Ekologik monitoring nafaqat ekologik xavflarni aniqlash, balki ularning iqtisodiy oqibatlarini baholash va oldini olish imkonini beruvchi strategik mexanizm hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar ekologik monitoringni barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) hisobotlarida ekologik monitoring tizimlari mavjud bo'lgan hududlarda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshishi va ekologik risklar bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlar qisqarishi qayd etilgan [2]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahlillariga ko'ra, ekologik monitoringni iqtisodiy rejalashtirish jarayoniga integratsiyalash mintaqaviy darajada ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash hamda yashil investitsiyalar oqimini 12–18 foizga oshirish imkonini beradi [3]. Ushbu yondashuvlar ekologik monitoringni faqat nazorat vositasi emas, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi faol mexanizm sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur global tendensiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakat hududlarida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va transport yuklarni olib yurishining ortishi ekologik holatni murakkablashtirib, mintqa iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligiga tahdid tug'dirmoqda. Shu sababli O'zbekistonda so'nggi yillarda ekologik monitoring tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar va strategik qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik axborotlarning ochiqligini ta'minlash va monitoring natijalarini davlat boshqaruvi tizimiga joriy etish bo'yicha yangi yondashuvlar shakllanmoqda [4]. Ushbu hujjatlar ekologik monitoringni mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muhim analitik asosi sifatida qarashga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik monitoring tizimining mintqa iqtisodiy barqarorligiga ta'siri masalasi ko'proq nazariy yoki ekologik jihatdan yoritilgan bo'lib, uning iqtisodiy samaradorligi, institutsional mexanizmlar bilan o'zaro bog'liqligi va hududiy rivojlanishga ta'sir kanallari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan [5]. Ayniqsa, ekologik monitoring natijalaridan investitsion qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash va hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda foydalanish masalalari ilmiy jihatdan chuqur asoslashni talab etadi.

Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ekologik monitoring tizimini joriy etishning mintqa iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini kompleks tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqot ekologik monitoring orqali ekologik xavflarni boshqarish, iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini aniqlash orqali mintaqaviy rivojlanish siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologik monitoring tizimini joriy etishning mintqa iqtisodiy barqarorligiga ta'siri masalasi so'nggi yillarda ekologik iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish va davlat boshqaruvi yo'nalishlarida muhim ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik monitoring dastlab atrof-muhit holatini kuzatish va baholashning texnik vositasi sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, hozirgi bosqichda u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik axborot tizimi sifatida qaralmoqda. Masalan, R. Ayres ekologik monitoringni iqtisodiy tizimlarning resurs sig'imini boshqarish va ekologik cheklovlarni inobatga olgan holda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish instrumenti sifatida baholaydi [6]. Ushbu yondashuv ekologik monitoringning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi rolini nazariy jihatdan asoslaydi.

Xalqaro miqyosda ekologik monitoring va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik iqlim o'zgarishi va ekologik risklar kontekstida keng o'rganilgan. IPCC hisobotlarida ekologik monitoring tizimlari orqali iqlim xavflarini erta aniqlash mintaqaviy iqtisodiyotlarda yo'qotishlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligi qayd etiladi [7]. Mualliflar monitoring ma'lumotlarining yetishmasligi iqtisodiy siyosatda noaniqlikni kuchaytirib, investitsion risklarni oshirishini ta'kidlaydi. Bu holat ekologik monitoringni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional shart sifatida ko'rsatadi.



Ekologik monitoringning resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'siri FAO tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. FAO ekspertlari ekologik monitoring asosida suv, yer va biologik resurslardan foydalanishni optimallashtirish qishloq xo'jaligi hududlarida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashini ilmiy asoslaydi [8]. Ushbu tadqiqotlarda monitoring tizimlari mavjud bo'lgan mintaqalarda hosildorlikning barqarorligi va ishlab chiqarish risklarining pasayishi qayd etilgan bo'lib, bu ekologik monitoringning bevosita iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan ekologik monitoringning ahamiyati J. Meadowcroft tadqiqotlarida institutsional yondashuv asosida tahlil qilingan. Muallif ekologik monitoringni barqaror rivojlanish siyosatining "axborot infratuzilmasi" sifatida baholab, uning yo'qligi hududiy iqtisodiy rejalashtirishni fragmentar holga keltirishini ta'kidlaydi [9]. Ushbu yondashuv monitoring tizimlarini mintaqaviy boshqaruvning ajralmas instituti sifatida qarash zaruratini ko'rsatadi.

Ekologik monitoring va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik Jahon banki tadqiqotlarida ham alohida e'tirof etiladi. Jahon banki ekspertlari ekologik monitoring asosida shakllantirilgan siyosatlar mintaqalarda ekologik zarar bilan bog'liq fiskal yuklamani kamaytirib, byudjet barqarorligini mustahkamlashini qayd etadi [10]. Tadqiqotlarda monitoring tizimlari rivojlangan hududlarda ekologik ofatlar natijasidagi iqtisodiy zarar 20–25 foizga kamroq ekani aniqlangan.

Yevropa Ittifoqi doirasida ekologik monitoringning iqtisodiy samaradorligi Copernicus dasturi misolida keng o'rganilgan. Copernicus yer kuzatuv tizimi orqali olingan ekologik ma'lumotlar mintaqaviy rejalashtirish, transport, energetika va qishloq xo'jaligi sohalarida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirayotgani ilmiy jihatdan asoslangan [11]. Tadqiqotchilar ushbu monitoring tizimi orqali Yevropa hududlarida iqtisodiy yo'qotishlar va ekologik risklar o'rtasidagi nomutanosiblik qisqarganini ko'rsatadi.

Ekologik monitoringni boshqaruv tizimlariga integratsiyalash masalasi ISO 14000 standartlari doirasida ham yoritilgan. Ushbu standartlar ekologik monitoringni korxonalar va hududlar darajasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv instrumenti sifatida belgilaydi [12]. Standartlashtirilgan monitoring tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarida resurs tejamkorligini oshirib, mintaqa iqtisodiyotining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ekologik monitoring va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi aloqadorlik A. Dasgupta tomonidan institutsional iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Muallif ekologik monitoringni tabiiy kapitalni boshqarishning asosiy elementi sifatida ko'rib, uni iqtisodiy qarorlar tizimidan ajratib bo'lmazligini ta'kidlaydi [13]. Ushbu yondashuv mintaqaviy iqtisodiyotda ekologik monitoringning strategik rolini ochib beradi.

Markaziy Osiyo hududlariga oid tadqiqotlarda ekologik monitoringning ahamiyati M. Sievers va hamkorlar tomonidan suv resurslari misolida o'rganilgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, monitoring tizimlari yetarli darajada joriy etilmagan hududlarda suv tanqisligi iqtisodiy beqarorlikni kuchaytiruvchi omilga aylanmoqda [14]. Bu holat mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili ekologik monitoring tizimini joriy etish mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ekologik monitoringning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ko'proq alohida yo'nalishlar kesimida o'rganilgan bo'lib, mintaqaviy darajada kompleks va integratsiyalashgan yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur maqolaning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ekologik monitoring tizimini joriy etishning mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks, tizimli va empirik-metodik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodik asosi sifatida barqaror rivojlanish nazariyasi, ekologik iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot hamda mintaqaviy iqtisodiyot konsepsiyalarining fundamental qoidalariga tayangan holda tahlil olib borildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil hamda institutsional tahlil usullari qo'llanilib, ekologik monitoring tizimi ekologik xavfsizlik, resurslardan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi o'zaro bog'liq elementlardan iborat yaxlit mexanizm sifatida qaraldi.

Tadqiqotning empirik qismida ekologik monitoring tizimi samaradorligini baholash uchun iqtisodiy-statistik, taqqoslama va integral baholash usullaridan foydalanildi. Bunda rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, hududiy ekologik monitoring ko'rsatkichlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosiy axborot manbasi sifatida jalb etildi. Mintaqa iqtisodiy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar (yalpi hududiy mahsulot barqarorligi, investitsiyalar hajmi, bandlik darajasi va ekologik xarajatlar) hamda ekologik monitoring indikatorlari (ifloslanish darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi, monitoring qamrovi) o'rtasidagi bog'liqlik taqqoslama va dinamik tahlil asosida baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda ekologik monitoring tizimini joriy etishning mintaqa iqtisodiy barqarorligiga ta'siri Namangan viloyati misolida empirik va institutsional yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar dinamikasi, ekologik monitoring tizimini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari hamda yashil korxona faoliyatini baholashning chegaraviy qiymat me'yorlari modeli o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuv ekologik monitoringning atrof-muhit holatini nazorat qilish bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik instrument sifatida namoyon bo'layotganini aniqlash imkonini beradi.

Keltirilgan uchta jadval natijalari ekologik monitoring tizimining mintaqaviy iqtisodiyotda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish va yashil tadbirkorlikni rag'batlantirishdagi rolini kompleks baholashga xizmat qiladi. Xususan, ifloslantiruvchi moddalar hajmidagi hududiy tafovutlar monitoring tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatsa, tashkiliy-iqtisodiy asoslar va yashil korxonalar faoliyatini baholash modeli ekologik monitoringni amaliy iqtisodiy mexanizmlar bilan integratsiyalash imkoniyatlarini ochib beradi. Natijada, mazkur bo'limda olingan tahliliy xulosalar ekologik monitoring tizimini mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

1-jadval. Namangan viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, ming tonna

Hududlar	Yillar									
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Namangan sh.	0,9	1,1	11,4	10,4	10,3	10,7	10,3	21,2	4,3	3,7
Mingbuloq	0,2	0,2	0,7	0,4	0,2	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0
Kosonsoy	0,3	0,4	0,3	0,4	0,4	0,3	0,2	0,3	0,3	0,2
Namangan	0,2	0,7	0,2	0,5	0,5	0,6	0,5	0,1	0,1	0,1
Norin	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1
Pop	0,6	1,0	1,1	1,3	1,1	1,4	0,7	0,4	0,3	0,3
To'raqo'rg'on	0,3	0,1	0,2	0,5	0,5	0,4	1,0	0,8	0,9	2,2
Uychi	0,2	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,4	0,3	0,4	0,2
Uchqo'rg'on	0,2	2,9	0,6	0,6	0,6	0,4	0,8	0,3	0,3	0,4
Chortoq	0,3	0,4	0,3	0,6	0,3	0,3	0,2	0,1	0,2	0,2
Chust	0,3	0,3	0,3	0,5	0,4	0,4	0,3	0,1	0,1	0,3
Yangiqo'rg'on	0,2	0,3	0,2	0,2	0,3	0,3	0,4	0,2	0,1	0,1
Viloyat	3,9	7,8	15,8	15,9	15,2	15,8	15,0	23,9	7,0	7,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida 2015–2024-yillar davomida atmosfera havosiga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi notekis va siklik xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi. Viloyat bo'yicha umumiy ko'rsatkich 2015 yildagi 3,9 ming tonnadan 2017–2019-yillarda 15,2–15,9 ming tonnagacha oshib, qisqa muddatda qariyb 4 barobar o'sishni namoyon etgan. Bu holat sanoat ishlab chiqarishining faollashuvi, transport yuklarni o'rnatish hamda ekologik nazorat mexanizmlarining nisbatan sustligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, Namangan shahri hissasiga to'g'ri keladigan chiqindilar hajmi 2017-yilda 11,4 ming tonnaga yetib, viloyat umumiy ko'rsatkichining 70 foizdan ortig'ini tashkil etgan. Bu shahar aglomeratsiyalarida ekologik yuklama yuqori ekanini va monitoring tizimini aynan urban hududlarda kuchaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Hududlar kesimidagi tahlil esa ekologik ifloslanish manbalari hududiy jihatdan keskin farqlanishini ko'rsatadi. Masalan, Pop va To'raqo'rg'on tumanlarida ayrim yillarda (2018–2020) ifloslantiruvchi moddalar hajmi 1,3–1,4 va 0,8–1,0 ming tonnagacha yetgan bo'lsa, Mingbuloq va Norin tumanlarida bu ko'rsatkich 0,0–0,2 ming tonna atrofida saqlanib qolgan. 2022 yilda viloyat bo'yicha keskin sakrash (23,9 ming tonna) kuzatilib, bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 1,6 barobar yuqori bo'lgan, 2023–2024 yillarda esa mos ravishda 7,0 va 7,8 ming tonnagacha pasaygan. Ushbu dinamik tebranishlar ekologik monitoring tizimining yetarli darajada barqaror ishlamayotganini va ifloslantiruvchi manbalar ustidan uzluksiz nazorat zarurligini ko'rsatadi. Natijalar ekologik monitoring tizimini joriy etish va uni real vaqt rejimida ishlovchi iqtisodiy-analitik instrumentga aylantirish mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.



2-jadval. Namangan viloyatida ekologik monitoring tizimini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Tarkibiy asos	Vazifasi
Raqamli axborot platformasi	Viloyat darajasida ekologik ko'rsatkichlar (atmosfera havosi, suv, chiqindilar, sanoat ta'siri)ni real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va kuzatish imkonini beradigan yagona elektron tizim.
Ma'lumot almashinuvi integratsiyasi	Sohaviy tashkilotlar (O'rmon xo'jaligi, Qishloq xo'jaligi, Ekologiya, Sog'liqni saqlash) o'rtasida API orqali ma'lumot almashinuvini ta'minlash orqali monitoring samaradorligini oshirish.
Fuqarolik jamiyati va aholini jalb etish	Ekologik monitoring jarayonlariga NNTlar, mahalla, jamoatchilikni jalb etish orqali ochiqlik va ijtimoiy nazoratni kuchaytirish.
Moliyaviy mexanizmlar	Mahalliy byudjet, xalqaro ekologik fondlar, «yashil loyihalar» grantlari, soliq imtiyozlari, ekologik to'lovlar orqali mablag'lantirish manbalarini diversifikatsiya qilish.
Iqtisodiy instrumentlar	Chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejash, bioorganik resurslardan foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va kompensatsiya mexanizmlari joriy etish.

Manba: Muallif ishlanmasi asosida

2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida ekologik monitoring tizimini joriy etish tashkiliy va iqtisodiy jihatdan ko'p darajali hamda kompleks yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Jadvalda keltirilgan raqamli axborot platformasi ekologik ko'rsatkichlarni (atmosfera havosi, suv resurslari, chiqindilar, sanoat ta'siri) real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va kuzatish imkonini beruvchi markaziy element sifatida namoyon bo'ladi. Bunday platformaning joriy etilishi monitoring jarayonlarining shaffofligini oshirib, ekologik xavflarni erta aniqlash orqali iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ma'lumot almashinuvi integratsiyasi orqali sohaviy tashkilotlar, jumladan, O'zgidromet, Ekologiya vazirligi va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasida uzviy axborot aloqalarining yo'lga qo'yilishi ekologik monitoringning uzluksizligi va ishonchligini ta'minlaydi. Bu holat ekologik monitoringni faqat nazorat vositasi emas, balki mintaq iqtisodiy barqarorligini boshqarishda muhim analitik instrument sifatida shakllantiradi.

Jadvalda ko'rsatilgan ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar ekologik monitoring tizimining amaliy samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati va aholini monitoring jarayonlariga jalb etish ochiqlik va ijtimoiy nazoratni kuchaytirib, ekologik qarorlarning qabul qilinishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlaydi. Moliyaviy mexanizmlar doirasida mahalliy byudjet, xalqaro ekologik fondlar va «yashil loyihalar» grantlaridan foydalanish monitoring tizimini barqaror moliyalashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiy instrumentlar – chiqindilarni qayta ishlashni rag'batlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va ekologik to'lovlar orqali resurslardan oqilona foydalanish monitoring tizimini real iqtisodiy natijalarga bog'laydi. Ushbu tashkiliy-iqtisodiy asoslarning uyg'unlashuvi ekologik monitoring tizimini mintaq iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi samarali mexanizmga aylantirish imkonini beradi.

Namangan viloyati hududlarida yashil korxona faoliyatining rivojlanishini baholash qiymatlari 0,1 dan 1,0 gacha bo'lgan oralig'da shakllangan bo'lib, yuqori, o'rta va past darajalar yig'indisining ko'rsatkichlar majmuasini tashkil etadi. Xususan, Namangan shahri, Pop va Mingbuloq tumanlarida yashil korxona faoliyatining rivojlanish darajasi past baholangan. Namangan shahrida sanoat korxonalarining chekka hududlarga ko'chirilishi amalga oshirilgan bo'lsa-da, transport vositalarining yuqori zichligi, aholi sonining ko'pligi hamda shaharning infratuzilma bilan bog'liq muammolari sababli yashil korxonalar rivojlanishi chegaraviy qiymatlar bo'yicha past ko'rsatkichlarga ega bo'lib qolmoqda.

$$I_t = \frac{\sum_{i=1}^n k_o}{n} \quad (3.1)^1$$

Bunda

k_o –koeffitsient;

n – ko'rsatkichlar soni.

Aniqlangan o'rtacha qiymat asosida Namangan viloyati hududlarida yashil korxona faoliyati rivojlanishining chegaraviy qiymat me'yorlarini guruhlariga ajratish mumkin (3.2-formulaga qarang).

$$I_t = \left(\frac{x_i}{x} - 1 \right) \cdot 100 \quad (3.2)^2$$

1 Дорогобыцкий А.И. Системный анализ: математические методы в экономике.- М.: Экономика, 2021. – С. 123-125.

2 Метелева Е.Р. Экономическая диагностика хозяйственных процессов в регионе. – М.: Колос, 2019. – С. 77-80.



Bunda

I_t – mintaq bo'yicha yashil korxonalarning integral ko'rsatkichdan og'ishi;

x_i – mintaq darajasida yashil korxonalar ko'rsatkichi;

x – mintaq darajasida yashil korxona integral ko'rsatkichining o'rtacha qiymati.

Namangan viloyatida yashil korxona faoliyatini rivojlanishining chegaraviy qiymat me'yorlarini $(0,51 \leq YaK \leq 1,0)$ yuqori, $(0,31 \leq YaK \leq 0,5)$ o'rta va $(0,1 \leq YaK \leq 0,3)$ past kabilar guruhlarga ajratish mumkin.

3-jadval. Namangan viloyati hududlarida yashil korxona faoliyatini rivojlanishining chegaraviy qiymat me'yorlari modeli

№	Korxona turi	Guruhi	CHegaraviy qiymat me'yorlari
1	Yashil korxona	Past daraja	$0,1 \leq YaK \leq 0,3$
2		O'rta daraja	$0,31 \leq YaK \leq 0,5$
3		Yuqori daraja	$0,51 \leq YaK \leq 1,0$

Manba: Muallif ishlanmasi asosida

3-jadvalda taklif etilgan chegaraviy qiymat me'yorlari modeli Namangan viloyatida yashil korxonalar faoliyatini baholash va tartibga solishda miqdoriy-mezonli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Jadvalga muvofiq, yashil korxona faoliyati YaK (yashil ko'rsatkich) integral indikator asosida past $(0,1 \leq YaK \leq 0,3)$, o'rta $(0,31 \leq YaK \leq 0,5)$ va yuqori $(0,51 \leq YaK \leq 1,0)$ darajalarga ajratilgan. Ushbu tasniflash yashil texnologiyalarni joriy etish, resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik ta'sirni kamaytirish darajasini tizimli baholash imkonini beradi. Xususan, past darajadagi yashil korxonalar ekologik talablarni minimal darajada bajarayotgan subyektlar sifatida baholanib, ular uchun rag'batlantiruvchi choralar va texnologik modernizatsiya dasturlarini kuchaytirish zarurati yuzaga keladi.

O'rta va yuqori darajadagi yashil korxonalar esa mintaq iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan subyektlar sifatida namoyon bo'ladi. O'rta darajadagi $(0,31 \leq YaK \leq 0,5)$ korxonalar yashil transformatsiya jarayonining faol bosqichida bo'lib, ularni soliq imtiyozlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali yuqori darajaga olib chiqish mumkin. Yuqori darajadagi yashil korxonalar $(0,51 \leq YaK \leq 1,0)$ esa ekologik innovatsiyalarni keng joriy etgan, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejankor texnologiyalardan faol foydalanayotgan ilg'or subyektlar bo'lib, ular mintaqada "yashil o'sish"ning lokomotiviga aylanadi. Natijada, ushbu chegaraviy qiymat modeli ekologik monitoring tizimi bilan integratsiyalashgan holda yashil korxonalarni baholash, differensial rag'batlantirish va mintaq iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun samarali ilmiy-amaliy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada ekologik monitoring tizimini joriy etishning mintaq iqtisodiy barqarorligiga ta'siri Namangan viloyati misolida kompleks ilmiy tahlil qilindi. Atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar dinamikasi, monitoring tizimini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari hamda yashil korxonalar faoliyatini baholashning chegaraviy qiymat me'yorlari modeli asosida ekologik monitoringning iqtisodiy, institutsional va boshqaruv jihatlariga ta'siri aniqlandi. Olingan natijalar ekologik monitoringni faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik instrument sifatida ko'rib chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Birinchidan, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmining 2015–2024-yillarda keskin tebranishi (viloyat bo'yicha 3,9 ming tonnadan 23,9 ming tonnagacha) ekologik xavflarning hududiy va vaqt bo'yicha notekis taqsimlanganini ko'rsatdi. Bu holat ekologik monitoring tizimining uzluksiz va real vaqt rejimida ishlovchi shaklda joriy etilishini taqozo etadi. Ilmiy taklif sifatida monitoring ko'rsatkichlarini yalpi hududiy mahsulot, investitsiya faolligi va sog'liqni saqlash xarajatlari bilan bog'lovchi integrallashgan tahlil platformasini yaratish, amaliy tavsiya sifatida esa ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha xavf darajasi yuqori hududlar uchun differensial iqtisodiy cheklov va rag'batlar joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, ekologik monitoring tizimini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari (raqamli axborot platformalari, ma'lumot almashinuvi integratsiyasi, moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar) mintaq iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynashi aniqlandi. Xususan, monitoring jarayonlariga fuqarolik jamiyati va xususiy sektorni jalb etish ochiqlik va samaradorlikni oshiradi. Shu bois amaliy tavsiya sifatida ekologik monitoringni moliyalashtirishda mahalliy byudjet bilan bir qatorda xalqaro ekologik fondlar ulushini



o'shish, shuningdek, monitoring natijalarini hududiy rivojlanish dasturlariga majburiy indikator sifatida kiritish taklif etiladi.

Uchinchidan, yashil korxonalar faoliyatini baholashning chegaraviy qiymat me'yorlari modeli ($YaK=0,1-1,0$) mintaqada yashil tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi isbotlandi. Past darajadagi yashil korxonalar ($0,1 \leq YaK \leq 0,3$) uchun texnologik modernizatsiya va subsidiyalar, o'rta darajadagi subyektlar ($0,31 \leq YaK \leq 0,5$) uchun soliq va kredit imtiyozlari, yuqori darajadagi korxonalar ($0,51 \leq YaK \leq 1,0$) uchun esa eksport va investitsion rag'batlar tizimini joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu yondashuv mintaqa iqtisodiyotida yashil o'sish drayverlarini shakllantirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, umumiy xulosaga ko'ra, ekologik monitoring tizimini joriy etish mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kompleks, ko'p darajali va institutsional jihatdan muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi. Ilmiy taklif sifatida ekologik monitoring, yashil korxonalar reytingi va hududiy iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarini yagona integrallashgan baholash tizimiga birlashtirish, amaliy tavsiya sifatida esa ushbu tizimni hududiy rejalashtirish va investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy mezon sifatida qo'llash tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv o'rta muddatda ekologik xavflarni kamaytirish bilan birga mintaqa iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
2. United Nations Environment Programme (UNEP). Environmental Monitoring and Assessment for Sustainable Development. Nairobi: UNEP, 2019.
3. OECD. Green Growth Indicators. Paris: OECD Publishing, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirishga doir qaror va dasturlar. Toshkent, 2021.
5. World Economic Forum. Global Risks Report. Geneva: World Economic Forum, 2022.
6. Ayres R.U. Industrial Metabolism and Environmental Monitoring. Tokyo: United Nations University Press, 1994.
7. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Sixth Assessment Report: Climate Change 2022 – Impacts, Adaptation and Vulnerability. Geneva: IPCC, 2022.
8. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Environmental Monitoring and Sustainable Agriculture. Rome: FAO, 2020.
9. Meadowcroft J. Governance for Sustainable Development. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2007.
10. World Bank. Environmental Monitoring and Economic Resilience. Washington, DC: World Bank Publications, 2021.
11. European Commission. Copernicus Programme and Regional Economic Development. Brussels: European Union, 2020.
12. International Organization for Standardization. ISO 14001: Environmental Management Systems. Geneva: ISO, 2015.
13. Dasgupta A. Natural Capital and Economic Sustainability. Oxford: Oxford University Press, 2018.
14. Sievers M., Wegerich K., Warner J. Water Monitoring and Economic Stability in Central Asia. London: Routledge, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
